KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 54 (584) 2025-YIL, 15-NOYABR

18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun

DAVLAT BAYROG'I MILLAT SHA'NI

Davlat bayrog'i bu - mamlakatning oddiygina timsoli emas, balki millatning g'ururi, mustaqillik timsoli hamda o'sha xalqning orzu-istaklari va kelajakka bo'lgan ishonchidir. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, bizning hududimizda mavjud bo'lgan qudratli davlatlarning ham o'zlarining bayroqlari mavjud bo'lib, bu ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, g'alaba timsoli bo'lgan. Shuningdek ozod va obod vatanimiz – O'zbekistonning ham bayrog'i bizning xalqimizni buyuk maqsadlar tomon boshlovchi mash'aldir. Bilamizki, bizning bayrog'imiz 1991-yil 18-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan bo'lib, mustaqil davlatlar qatorida BMTning bosh qarorgohida mustaqilligimiz ifodasi, xalqimizni iftixori sifatida 34 yildan buyon hilpirab turibdi. Bayrog'imizda milliy-madaniy an'analarimizni o'zida mujassamlashtirilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston to'laqonli suveren respublika sifatida 1991 – yil 18-noyabr 407-XII-son bilan "O'zbekiston respublikasi davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun tasdiqladi. Ushbu qonunning 4-moddasida bayrog'imizni tuzilishi, shakli, rangi haqida to'la ma'lumot aniq keltirilgan:

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i — bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining uzunligi 250 santimetrga, kengligi 125 santimetrga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrga tengdir. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining o'rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi oy va uning yonida o'n ikkita oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan.

Oq rangli yangi oy va o'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning o'rtasidan 75x30 santimetrga teng to'g'ri to'rtburchakka sig'adigan qilib joylashtirilgan.

Oq rangli yangi oy vertikal holatda do'ng tomoni dastaga qaratilgan, dastadan 20 santimetr masofada joylashtirilgan bo'lib, diametri 30 santimetrli doiraga sig'adi.

O'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz diametri 6 santimetrli doiraga sig'adi. Doiralar orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzunasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda uchta, o'rta qatorda to'rtta va quyi qatorda beshta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi.

Qonuning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek O'zbekistonda turgan boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini hurmat qilishlari shart. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi qonunchiligini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Bundan tashqari, bayrog'imiz xalqaro maydonda rasmiy delegatsiya safarlarida musobaqalarda davlatimizning timsoli hisoblanadi.

Mana 34 yildan buyon har bir inson ong-u shuuriga Vatanimiz ramzlariga nisbatan chuqur hurmat tuyg'ularini singdirish, umummilliy va ehtirom timsollari bo'lgan bayroq, gerb va madhiyamizni ulug'lash va ardoqlashimiz burchimiz ekanligini singdirib borish maqsadida ushbu kun davlatimiz miqyosida keng ommaviy nishonlanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi tinch va osoyishta davrda davlatimiz bayrog'i mustaqillik va milliylikni o'zida aks ettirib vatanimiz hamda chet davlatlari elchixona hududlarida viqor bilan hilpirab turishi har birimizga quvonch va faxr baxshida etadi.

O.MAXMUDOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Andijon shahar bo'linmasi mutaxassisi.

16-noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni

KONFESSIYALARARO MULOQOT VA DINIY BAG'RIKENGLIK – JAMIYAT BARQARORLIGI GAROVI



Andijon shahrida 16-noyabr – "Xalqaro bag'rikenglik kuni" munosabati bilan o'tkazilayotgan "Bag'rikenglik haftaligi" doirasida ana shu mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

Tadbir Andijon viloyati hokimligi, adliya, Din ishlari bo'yicha qo'mitaning viloyat boshqarmalari, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi va Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining viloyat hududiy bo'linmalari hamkorligida o'tkazildi.

Unda mahalliy NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari, milliy madaniy markazlar va turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad – jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, konfessiyalararo hamjihatlik, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va diniy bag'rikenglikni keng targ'ib qilishdan iborat bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekistonning millatlararo totuvlikni ta'minlash siyosati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarda keltirilgan standartlarga to'la mos keladi.

Xususan, "O'zbekiston – 2030 strategiyasining 100-maqsadiga ko'ra, jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangani davra suhbatida alohida qayd etildi.

Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasi qaroriga muvofiq, 1997-yildan buyon butun dunyoda har yili 16-noyabr – "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida keng nishonlanib kelinadi.

Davlat rahbarining 2019-yil 15-noyabrdagi "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida har yili 16-noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuniga bag'ishlangan "Bag'rikenglik haftaligi" tashkil etib kelinmoqda.

Tadbirda do'stlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish masalalari xususida fikr yuritildi.

Zarifaxon AXMEDOVA,
Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi Andijon viloyat bo'limi boshlig'i.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BARCHAMIZNING BURCHIMIZ

"ADOLAT MEZONI" GAZETASI ANDIJON SHAHRIDAGI MEDIA TA'LIM TEXNIKUMI BILAN HAMKORLIKDA OLIY MAJLIS HUZURIDAGI FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH JAMOAT FONDI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRILGAN "KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI" NOMLI LOYIHASI DOIRASIDA TADBIR O'TKAZILDI.



Tadbirda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyati bo'limi raisi, "Adolat mezoni" gazetasi muharriri Maxpura Artiqova, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazining Andijon viloyati hududiy bo'linmasi rahbari Farhodbek Ataxanov, hamda Andijon shahar Adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i Ahrorbek Egamnazarov ishtirok etdilar.

Tadbirda so'zga chiqqanlar korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunda O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganini ta'kidladi. Shuningdek, u keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar va konseptual hujjatlar mamlakatda ochiqlik, adolat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qilayotganini qayd etdi.

Shuningdek yoshlarga korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida so'z yuritib, har bir fuqaro, ayniqsa yosh avlod halollik va mas'uliyatni o'z hayot tarziga aylantirishi zarurligini ta'kidladi.

O'quvchilarga huquqiy bilimlarni oshirish, qonun ustuvorligi va fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berdi.

Tadbir yakunida talabalar faol ishtirok etib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z fikr va takliflarini bildirdi. Ular korrupsiyaga qarshi ma'rifat orqali kurashish — jamiyatning har bir a'zosi oldidagi mas'uliyat ekanini ta'kidlab o'tishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ham korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgani qayd etildi.

Bunday ma'naviy tadbirlar yoshlarda halollik, adolat va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dilbar ABDUMAJIDOVA,
"Adolat mezoni" gazetasi muxbiri.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

JAMIYATNING YASHIRIN DARDI

Har birimiz hayotda shunday holatlarga duch kelamizki, go‘yo kichik bir “rahmat” yoki “sovg‘a” bilan ish bitadigan tizim paydo bo‘lgandek tuyuladi. Aslida esa, shu “kichik” deb o‘ylagan illat bugun butun jamiyatning ildizini chirityapti. Korrupsiya — nafaqat qonunni buzish, balki ishonchni o‘ldirish, adolatga bo‘lgan umidni sindirishdir.

Bugungi o‘sish, rivojlanish davrida korrupsiya nafaqat bir davlat, balki butun insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolaridan biridir. U jamiyatning taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladi.

MILLAT SHA’NINI ASRAYLIK!

Adolat ishonch tuyg‘usining butunlay yo‘q qilib, nafrat hamda adovatni keltirib chiqaradi. Menimcha jamiyatimizda bunday yomon illatlar bo‘lmasligi kerak, shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish - faqat davlat idoralarini emas, har bir fuqaroning burchidir.

Korrupsiya o‘zi nima? Avvalo bu mansab yoki vakolatlar shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish tushiriladi. Afsuski, bu illat har qanday sohada ta’limda, tibbiyotga, iqtisodiyotda hatto kundalik hayotda ham uchrashi mumkin. Uning eng yomon va xavfli tarafi yuqorida aytilganidek odatdagi ishonchi so‘ndiradi, mehnatkashlarning mehnatini qadrsizlantiradi.

O‘zbekiston bugun korrupsiyaga qarshi qat’iy siyosat yuritmoqda. So‘nggi yillarda maxsus qonunlar qabul qilindi, ochiqlik va shaffoflik tizimi yo‘lga qo‘yildi. Elektron hukumat, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi va jamoatchilik nazoratining kuchayishi bularning barchasi korrupsiyaga qarshi choralar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurash — bu nafaqat hukumat siyosati, balki millat sha’ni, davlat kelajagi masalasidir. Biz yoshlar esa halollikni qadrlab, o‘z hayotimizda shaffoflikni ustuvor qilgan holda yurtimizning porloq kelajagi uchun xizmat qilishimiz kerak.

Bugun jamiyatimizda eng og‘ir kasalliklardan biri — korrupsiya. Uni ko‘pchilik “katta odamlarning ishi” deb biladi. Aslida esa, bu illat har joyda, har qadamda yashirinib yotadi.

Muslima BEDALOVA,
Andijon shahridagi
50-maktab o‘quvchisi.

PORA ESA ENG ARZON YO‘L

Bir tanishimning boshidan o‘tgan voqeani aytmoqchiman. U o‘g‘lini maktabga joylashtirmoqchi bo‘lgan, direktor esa “joy yo‘q, lekin...” deb, so‘zni tushunarli ohangda cho‘zgan. Tanishim esa “nima kerak bo‘lsa, beraman”, deb javob qaytargan. Keyinroq u o‘sha “nima kerak bo‘lsa” degan so‘zining narxi qancha ekanini tushungan — bola joylashgan, lekin vijdonida og‘ir tosh paydo bo‘lgan.

Korrupsiya — bu faqat yuqoridagilar ishi emas. Ba’zan u kundalik hayotimizda, odamlar o‘rtasidagi oddiy kelishuvlarda ham yashirinadi. Navbatni “aylantirib o‘tish”, tekshiruvdan “ko‘z yumish”, tanishbilish bilan “yo‘l topish” — bular ham korrupsiya. Farqi shundaki, biz uni o‘zimiz oqlaymiz. “Hamma shunaqa qiladi-ku” degan jumla eng xavfli bahona.

Ammo o‘zgarish ham aynan har bir insondan boshlanadi. O‘zing pora bermasang, senga ham hech kim pora bera olmaydi. Bir kishi yo‘q desa, ikkinchisi ham jur’at topadi. Shunda tizim o‘zgaradi. Men ko‘p joylarda ko‘rdim: halol ishlaydigan rahbarning jamoasi ham halol bo‘ladi. Chunki u o‘zi ibrat.

Biz korrupsiyaga qarshi kurashni faqat qonun bilan emas, vijdon bilan ham olib borishimiz kerak. Axir har bir pora — kelajak avlodning imkoniyatini o‘g‘irlaydi. O‘g‘limiz yoki qizimiz ertaga “halol mehnat qilaman” deganda, unga yo‘l to‘siq bo‘lmasligi kerak.



Shunday ekan, har kim o‘z o‘rnida bitta savol bersin:

“Men halol yashayapmanmi?”

Agar bu savolga vijdonan “ha” deb javob bera olsak, demak biz korrupsiyaga qarshi kurashni allaqachon boshlaganmiz.

Ulbo‘lsin YERIMBETOVA.

Korrupsiya haqida gap ketganda, ko‘pchilik “menga nima aloqasi bor?” deydi. Aslida har birimiz bu tizimning ichidamiz — kimdir tomoshabin sifatida, kimdir esa bilmasdan ishtirokchi sifatida.

Bir tanishim bor edi, davlat idorasida ishlaydi. Kuni bilan hujjatlar tayyorlaydi, orasida yuradi, odamlar bilan ishlaydi. Bir kuni u menga aytgan edi:

“Ba’zan kimdir menga bir narsani “sovg‘a” qilmoqchi bo‘ladi, “sizdan minnatdorman”, deydi. Ammo men o‘ylayman — agar shu sovg‘ani olsam, men o‘sha odamdan farqim qolmaydi. Chunki halollikni faqat shior sifatida emas, amalda saqlab qolish kerak.”

Bu gapni eshitganimda, o‘ylab qoldim: halol bo‘lish — bu qiyin yo‘l. Chunki u poradan oson, lekin vijdondan og‘ir yo‘lni tanlaydi.

Bugun ayrim joylarda oddiy tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun ham “tanish topish”, “ozgina choy puli berish” odatga aylangan. Bu odat nafaqat tizimni buzadi, balki odamning o‘zini ham buzadi. Chunki bir marta berasiz, ikkinchi marta so‘raydi, uchinchi marta esa sizdan odatiy narsa sifatida kutadi.

Bir bola maktabda o‘qiydi, u halollik haqida she’r o‘qiydi, devorga “poraga yo‘q de!” degan plakat chizadi. Ammo kechqurun otasi hujjatni tezlashtirish uchun “biror joyga kirib chiqadi”. Bola buni ko‘rmasa ham, vijdoni sezadi. O‘sha bola ertaga kim bo‘ladi? U otasidan halollikni emas, tizimdan “yo‘l topishni” o‘rganadi.



Korrupsiyaga qarshi kurash degani faqat tekshirish, jazolash yoki bayonot berish emas. Bu, avvalo, tarbiya, namuna va oriyat masalasi. Biz bolalarga “poraxo‘r” so‘zini yomon so‘z sifatida o‘rgatishimiz kerak, lekin undan ham muhimrog‘i — “halol” so‘zini faxrli so‘z sifatida singdirishimiz lozim.

Halol odam boy bo‘lmasligi mumkin, lekin u xotirjam yashaydi. Pora olgan odam boy bo‘lishi mumkin, lekin u halovatdan ayriladi.

Shunday ekan, bugundan boshlab har birimiz o‘zimizdan so‘raylik:

“Men halolmanmi?” Shu savolga javob berish — korrupsiyaga qarshi kurashning eng birinchi qadami.

Xurshida ABDUPATTOYEVA.

Korrupsiya — nafaqat jinoyat, balki insonlikni yo‘qotish. Kimdir pora olayotganda “bola-chaqa bor”, deb o‘zini oqlaydi, kimdir berayotganda “ishga kirish kerak”, deydi. Ammo aslida ularning har biri kelajakdagi halol inson uchun eshikni yopadi.

Endi o‘ylang, farzandingiz ertaga o‘qishga kirib, “dadam halol ishlagan”, deb faxrlansa — bu eng katta g‘alaba emasmi? Axir eng katta boylik — pok yuz va toza yurak.

Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashni birinchi bo‘lib qonundan emas, o‘z qalbimizdan boshlaylik. Pora bermaslik — bu jasorat. Pora olmaslik — bu oriyat. Adolatni asrash esa — bu vijdonning eng oliy darajasi.

Roxilaxon SULAYMONOVA,
ADPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi.

“BIR PIYOLA CHOY” NARXIGA SOTILGAN ADOLAT

Qani endi buni tan olaylik: kimdir ichki ishlar xodimiga “bir piyola choy” deb uzatadi, kimdir hujjatni tezroq bitkazish uchun “ish oson bo‘lsin” deb cho‘ntagiga qaraydi. Biz bu harakatni oddiy odatga aylantirib qo‘yganmiz. Lekin aslida shu “odatiy” hol jamiyatni ich-ichidan kemiradigan hasharotga o‘xshaydi.



Bir tanishim aytgan edi: “Pora berganimda o‘zimni g‘olibdek his qilganman, keyin tushundim — aslida mag‘lub bo‘lgan ekanman.” Haqiqatan ham, korrupsiya bizni ichkaridan sindiradi. Chunki u faqat pullarni emas, ishonchni ham yeb bitiradi. Adolatga ishonch yo‘qolsa, tartib yo‘qoladi, tartib yo‘qolsa — taraqqiyot ham yo‘qoladi.

Bir paytlar bir ayol kasal bolasini shifokorga olib kelgan ekan. Shifokor esa “navbat ko‘p, lekin tezlashtirish mumkin”, deb ishora qilgan. Ona bola uchun, tabiiyki, rozi bo‘lgan. Bola davolangan, ammo ona bir umr o‘sha pulni yodidan chiqara olmagan: “Men o‘sha kuni vijdonimni dori bilan almashtirdim”, degandi.

«NOTARIUS MASLAHATI» SAHIFASI

NOTARIAL IDORADA ISH YURITISH VA HISOBDORLIK

Notarius o‘z ish faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga amal qilgan holda olib boradi. Har bir korxona muassasada bo‘lgani kabi notarial idorada ham ish yuritish ma’lum qoida va me’yorlarga asosan olib boriladi.

Adliya Vazirining 2010-yil 22-dekabrda 308-mh-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Notarial idoralarda notarial ish yuritish Qoidalari dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunining 1-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida notariat qonunda nazarda tutilgan notarial harakatlarni hamda ular bilan bevosita bog‘liq huquqiy va texnik tusdagi harakatlarni notariuslar tomonidan amalga oshirish yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashga da’vat etilgan huquqiy institutdir.

Notarial ish yuritishni to‘g‘ri tashkil qilish uchun notarial idorada rahbarlik qiluvchi notarius javobgar hisoblanadi hamda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarda notariusning buyrug‘i bilan notariusning o‘ziga yoki xodimlaridan biriga yuklanadi.

“Davlat tili haqida” va “Notariat to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq notarial idoralarda notarial ish yuritish va notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi.

Notarial harakatlar bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjat matni yuridik va jismoniy shaxslarning talablariga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda yoziladi.

Hujjat turining nomi (ma’lumotnoma, hisobot va boshqa) har bir hujjatda (xatdan tashqari) ko‘rsatiladi.

Hujjatlar matni A4 (210 x 297) va A5 (148 x 210) shakldagi varag‘ining bir tomonida masshtab kichraytirilmagan holda yoziladi.

Notarial idoraning ish yurituvi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlar tegishliligiga qarab tashkilotlarga, mansabdor shaxslarga va fuqarolarga yuboriladi.

Javob xatlarida javobi jo‘natilayotgan hujjatning raqami va sanasi ko‘rsatiladi.

Rasmiylashtirilgan hujjatlar matnida keltirilgan sanalar raqamlar bilan ifodalanadi. Sanalar arab raqamlari bilan bir satrda va quyidagi izchillikda yoziladi: yil, kun, oy (rus tilida tayyorlangan hujjatlarda kun, oy, yil ko‘rinishida).

Hujjatlarda ilova mavjud bo‘lganda ular nomi sanab ko‘rsatiladi.

Agar ilovalar risolalangan bo‘lsa, varaqlar soni ko‘rsatilmaydi.

Bitta yo‘llanma xat bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan hujjatlarni yuborish va kirim qilish taqiqlanadi.

Barcha jo‘natilayotgan hujjatlar notarius tomonidan imzolanadi.

Notarial idorada ijro qilinishi lozim bo‘lgan barcha hujjatlar, shu jumladan arizalar belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Ro‘yxatga olingan hujjatlarning birinchi betida (chap tomon pastki qismida) notarial idoraning shtampi bosiladi hamda hujjatning kirim raqami va uning qabul qilingan sanasi yoziladi.

Kelib tushgan hujjatlarning konverti uning jo‘natuvchisi manzilini hamda hujjatning jo‘natilgan va qabul qilib olingan vaqtini uning konverti bo‘yicha aniqlash mumkin bo‘lgan hollardagina saqlanadi va konvert hujjatlarga ilova qilinadi.

Fuqarolarning ariza, shikoyat va takliflari kelib tushgan konvertlar yo‘q qilinmaydi hamda ushbu hujjatlar bilan birgalikda saqlanadi.

Agar hujjatlar adashib jo‘natilgan bo‘lsa, ular yangi konvertlarda avvalgi konvert ilova qilingan holda tegishli manzillarga yuboriladi yoki shaxsan hujjatning jo‘natuvchisiga qaytariladi.

Notarial idoraga kelib tushgan hujjatlar ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin notarius shu kunning o‘zida uni ijro etish va ijro muddati to‘g‘risidagi masalani hal qiladi.

Hujjat unda ko‘rsatilgan barcha masalalar hal qilinib, uning jo‘natuvchisiga javob berilganda ijro etilgan deb hisoblanadi.

Jo‘natilayotgan hujjat Tizimda ro‘yxatdan o‘tkaziladi va unga tegishli tartib raqami beriladi.

Notarial idoralarda hujjatlar pochta aloqasi, elektron pochta, xat-hujjat tashuvchi xodim orqali jo‘natiladi yoki shaxsan uning jo‘natuvchisiga (uning vakiliga) topshiriladi.

Notarial idoraning ish yurituvidagi barcha hujjatlar ijro etilganidan keyin tegishli yig‘majildlarga turkumlashtiriladi.

Merosni qabul qilish yoki undan voz kechish haqidagi arizalar, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish, meros mol-mulk hisobidan xarajatlarni to‘lash, meros mol-mulkni qo‘riqlash choralarini ko‘rish haqidagi arizalar, shuningdek, kreditorlarning talabnomalari alohida meros ishlari shakliga keltiriladi.

“Notariat to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga asosan, notarial idora notarial ish yuritish hujjatlari va materiallarining but saqlanishini ta’minlashi, o‘z notarial arxiv ishini yuritishi shart.

Notarial ish yuritish hujjatlari va materiallari uch yil o‘tgach notarial arxivlarga topshirilishi kerak.

Joriy ish yuritish reyestrlari, meros ishlari yig‘majildlari va tugallangan yig‘majildlar notarial idora arxiviga topshirilishiga qadar changdan, quyosh nuri ta’siridan himoyalaydigan va ularning yaxshi saqlanishini ta’minlaydigan shkaflarda turadi.

Yig‘majildlardan biron-bir hujjat olish va berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

B. ALIYEV,
Marhamat tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

Qonunchilikka ko‘ra, vasiyat qiluvchi yoki ishonch bildiruvchi tomonidan yozilgan yoki uning so‘zlaridan notarius tomonidan yozib olingan vasiyatnoma va ishonchnoma notarial tasdiqlangan vasiyatnoma va ishonchnoma hisoblanadi.

NOTARIAL TASDIQLANGAN HUJJATLARGA TENGLASH TIRILADIGAN VASIYATNOMALAR, ISHONCHNOMALAR

Yana shunday holatlar bo‘ladiki, vaziyat nuqtayi nazaridan boshqalar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar ham notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi.

Ular quyidagilar:

kasalxonalarda, gospitallarda, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarida yashayotgan fuqarolarning ushbu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh shifokorlari, ularning tibbiyot bo‘yicha o‘rinbosarlari yoki navbatchi shifokorlari, shuningdek gospitallarning boshliqlari, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarining direktorlari va bosh shifokorlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ostida suzib yurgan kemalarda safarda bo‘lgan fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

qidiruv ekspeditsiyalarida yoki shunga o‘xshash boshqa ekspeditsiyalarda bo‘lgan fuqarolarning shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

harbiy xizmatchilarning, harbiy qismlar joylashgan, notariuslar bo‘lmagan punktlarda esa, shu qismlarda ishlovchi harbiy xizmatchi bo‘lmagan shaxslarning, ular oila a’zolarining hamda harbiy xizmatchilar oila a’zolarining harbiy qismlarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari, ishonchnomalari va arizalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;

ozodlikdan mahrum etish joylaridagi yoki qamoqdagi shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari, ishonchnomalari va arizalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno.

Vasiyatnomalar, ishonchnomalar va arizalarni ushbu moddada aytib o‘tilgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilab qo‘yadigan tartibda amalga oshiriladi.

Mirshoxid QURBONOV,
Asaka tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2021 йил 18 март куни вафот этган марҳум **KABULOVA MAXROBOXON MANNABOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур шохкўчаси, 35/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.А.Абдусоломова нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2023 йил 1 август куни вафот этган марҳум **ЭРГАШЕВ АДИЛЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Мустақиллик шохкўчаси, 29-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.Ж.Қурбонов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Фароғат кўчаси, 54-уй, 44-хонадонда яшаб, 2025 йил 20 июль куни вафот этган марҳум **РАЗАКОВА ФЛЮРА ГАБДУЛХАКОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2020 йил 8 ноябрь куни вафот этган марҳум **KURBONOV KOBULJON MUKUMJONOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Дўстлик МФЙ, Олайчи кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 28 ноябрь куни вафот этган марҳум **ШЕРМАТОВ ТЎХТАМУРОД АБДУЖАББОРОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Тошйўли МФЙ, Конститутция кўчасидаги уйда яшаб, 2022 йил 1 ноябрь куни вафот этган марҳум **ЮЛДАШЕВ МИРКОМИЛ АЛИКОБУЛОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Оқ тўнлик МФЙда яшаб, 2024 йил 18 сентябрда вафот этган АЛИЖОНОВ **ИЛХОМЖОН СОТВОЛДИЕВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Андижонлик МФЙда яшаб, 2022 йил 18 сентябрда вафот этган **КУРБОНОВ САЙИБЖОН,**

Шаҳрихон тумани, Найман МФЙда яшаб, 2025 йил 30 январда вафот этган **МАВЛАНОВ АРАБИДИН ОМАНБАЙЕВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Янги вахим МФЙда яшаб, 2024 йил 27 ноябрда вафот этган **ИКРОМОВ ЖАЛОЛДИН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Намозгоҳ МФЙда яшаб, 2014 йил 3 июлда вафот этган **AZIMOV JURABOY,**

Шаҳрихон тумани, Янги хаёт МФЙда яшаб, 2016 йил 2 февралда вафот этган **MAMAJONOV OTAXON,**

Шаҳрихон тумани, Байроқ МФЙда яшаб, 2007 йил 2 июлда вафот этган **СОТВОЛДИЕВ РУЗИБОЙ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

“Yashil bog‘ yarataylik – barqaror kelajak sari!”

ANDIJONDA EKOLOGIK TASHABBUS DOIRASIDA YANGI BOG‘ BARPO ETILDI



O‘zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat Kengashi tomonidan qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Andijon davlat universiteti Akademik litseyida keng qamrovli ekologik tadbir o‘tkazildi. Ushbu tashabbus “Yashil bog‘ yarataylik – barqaror kelajak sari!” shiori ostida tashkil etilib, Ekopartiya hamda nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘z “Yashil bog‘i” barpo etilishiga xizmat qildi.

Tadbir avvalida Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi vakili tomonidan “Yashil makon” loyihasi doirasida seminar tashkil etildi. Unda ishtirokchilarga daraxtlarni ekish texnologiyasi, ko‘chatlarni parvarishlash, hududlarda yashil maydonlarni ko‘paytirishning ahamiyati bo‘yicha batafsil tushuntirishlar berildi.

Seminardan so‘ng Ekologik partiya a’zolari, NNT vakillari, litsey o‘qituvchi va o‘quvchilari birgalikda pavloniya ko‘chatlarini ekish jarayonida faol ishtirok etishdi. Hududda barpo etilgan mazkur “Yashil bog‘” nafaqat ekologik muvozanatni mustahkamlashga, balki yoshlar orasida tabiatga mehr va mas’uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadbir davomida tashkilotchilar tomonidan yoshlar o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish, daraxt ekish an’anasini keng yoyish, ushbu tashabbusni tizimli ravishda davom ettirish bo‘yicha kelgusidagi rejalar ham belgilab olindi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat Kengashi tomonidan amalga oshirilayotgan bunday loyihalar, shubhasiz, barqaror yashil kelajakni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

M.MAMATQULOV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat Kengashi axborot xizmati rahbari.

MAMLAKATIMIZDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA BANKLAR TOMONIDAN IMTIYOZLI KREDIT MABLAG‘LARI AJRATISH KO‘LAMI TOBORA KENGAYIB BORMOQDA.

KREDIT SHARTNOMASINI TASDIQLASH TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?



Kredit nima degani? Avvalo mana shu atama mohiyatini to‘liq tushunib olishimiz kerak. Kredit – boshqa shaxsga muddatlilik, qaytarishlilik va foydalanganlik uchun foiz shaklida to‘lovlilik shartlari asosida vaqtincha beriladigan pul mablag‘lari, tovar va boshqa qimmatliklardir.

Amaldagi Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga muvofiq, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindir. Shuningdek, shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining yana bir moddasi, ya’ni 744-moddasiga ko‘ra, kredit shartnomasi bo‘yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag‘lari berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to‘lash majburiyatini oladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq kredit tashkilotlari bo‘lmagan tijorat tashkilotlarining kreditlashni amalga oshirishiga yo‘l qo‘yilgan hollarda kredit shartnomasi to‘g‘risidagi qoidalar bunday tijorat tashkilotlari amalga oshiradigan kreditlash munosabatlariga nisbatan qo‘llanadi.

Kredit shartnomasi bu — qarzning alohida, mustaqil ko‘rinishlaridan biridir. Kredit shartnomasida qarz beruvchi sifatida faqat bank yoki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki litsenziyasiga ega bo‘lgan boshqa kredit tashkiloti qatnashishi mumkin. Kredit shartnomasi ikkala tarafga ham majburiyat yuklaydi. Har bir taraf ikkinchi taraf foydasiga majburiyat oladi.

Masalan, kreditor qarzdorga pul summasini berishga majbur va kelishilgan muddat o‘tganda, berilgan pulni va ustama foizlarni talab qilish huquqiga ega, qarz oluvchi esa pul berilishini talab qilishga haqli va uni kelishilgan muddatda ustamasi bilan qaytarishga majbur.

Qarz shartnomasidan farqli ravishda, kredit shartnomasi bilan olingan pullar har doim haq evaziga tuzilishi shart: qarzga olingan pul mablag‘laridan foydalanganligi uchun qarzdor ma’lum summa asosida hisoblangan foizlarni to‘lashga majbur.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra, kredit shartnomasi yozma shaklda tuzilishi shart. Yozma shaklga rioya qilmaslik kredit shartnomasining haqiqiy bo‘lmasligiga olib keladi. Bunday shartnoma o‘z o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 746-moddasiga ko‘ra, kreditor qarz oluvchini to‘lovga qobiliyatsiz deb hisoblasa, qarz oluvchi kreditni ta’minlash majburiyatlarini bajarmasa, shartnomada nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzsa, shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarz oluvchi bu haqda kreditorni kredit shartnomasida belgilab qo‘yilgan kredit berish muddatiga qadar xabardor qilishi shart. Qarz oluvchi kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzgan taqdirda kreditor shartnoma bo‘yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to‘xtatishga haqli.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, amaliyotda kredit shartnomasi bo‘yicha qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajarmaslik holatlari ko‘payib bormoqda. Bunday nizoli holatlar sudlarda ko‘rib chiqilib, adolatli hal etilmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, shartnoma shartlariga qat’iy rioya qilish taraflar uchun birdek foydali bo‘lishi barobarida iqtisodiyotni yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Buni hech qachon unutmaslik zarur.

Muhammadbobur TO‘YCHIBOYEV,
Paxtaobod tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

Oila qurish — inson hayotidagi eng mas’uliyatli qarorlardan biridir. Ammo to‘ydan oldin nafaqat sevgi va rejalar haqida, balki — sizning va bo‘lajak turmush o‘rtog‘ingizning sog‘lig‘i haqida ham o‘ylash kerak. O‘zbekiston Respublikasida nikohdan oldin majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish OIV infeksiyasini tekshirishni o‘z ichiga oladi. Bu rasmiyatchilik emas, balki ikkala sherik va ularning kelajakdagi farzandlarini himoya qiladigan chora.

NIMA UCHUN NIKOHLANUVCHILAR OIV INFEKSIYASIGA O‘Z VAQTIDA QON TOPSHIRISH KERAK - BU NIMA UCHUN MUHIM?

O‘zbekiston Respublikasining "Odam immunitet tanqisligi virusi (OIV infeksiyasi) keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonuniga muvofiq har bir fuqaro quyidagi huquqlarga ega:

- bepul va ixtiyoriy OIV testi;
- test natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligiga;
- ijobiy natija bo‘lsa, psixologik va tibbiy yordamga.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-son qaroriga 1-ilova «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi Nizomining 4-bandida asosan «Nikohlanuvchi shaxslar mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq hajmlarda psixik, narkologik, tanosil kasalliklari, sil kasalligi va OIV/OITS yuzasidan tibbiy ko‘rikdan o‘tadi…». Ushbu qaroriga muvofiq, tibbiy muassasalar nikohni ro‘yxatdan o‘tkazishdan oldin bo‘lajak turmush o‘rtoqlarni tekshiruvlardan o‘tkazadi.

Bu chora-tadbirlar OIV infeksiyasining yangi holatlarining oldini olish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, oilada mas’uliyat madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan.

Nima uchun bu muhim

1. Erta aniqlash hayotni saqlab qoladi.
2. Turmush o‘rtog‘ini va kelajagini farzandini himoya qiladi.
3. Mas’uliyat va halollik.

OIV tekshiruvi uchun qonni qayerda topshirishim mumkin

— mamlakatning har bir mintaqasida OITSga qarshi kurash markazlari;

— litsenziyalangan laboratoriyalarga ega shahar va tuman poliklinikalari;

— pasportingizni ko‘rsatmasdan tahlil qilishingiz mumkin bo‘lgan anonim test xonalarida.

Jarayon oddiy: tibbiy muassasaga murojaat qilish, rozilikni to‘ldirish, qon topshirish va bir necha kun ichida natijani olish kifoya. Barcha tekshiruvlar bepul va maxfiy tarzda o‘tkaziladi.

Maslahat va yordam.

Sinovdan so‘ng, natijadan qat’i nazar, har kimga quyidagilar imkoniyati beriladi:

— yuqumli kasalliklar shifokori bilan maslahatlashish;

— profilaktika haqida tushuntirish;

— psixologik yordam.

Agar test ijobiy ya’ni qonda virus aniqlangan bo‘lsa, odamga darhol OITS markazida kuzatuv o‘tkazishga va terapiyani boshlashga yordam beriladi.

OIVni bilish - himoya qilishni anglatadi

So‘nggi 9 oy davomida 27 nafar nikohlanuvchi juftlik orasida, to‘y sanasiga yaqin kunlarda o‘tkazilgan qon tahlillari natijasida OIV va boshqa yuqumli kasalliklar aniqlangani holatlar kuzatildi. Afsuski, bunday vaziyatlarda aksariyat juftliklar yuqish ehtimoli yuqori deb hisoblab, to‘y marosimini bekor qilishga majbur bo‘lishmoqda.

Shu sababli, aziz ota-onalar va yoshlar!

Nikohdan avval tibbiy ko‘rikdan o‘tish – bu shunchaki rasmiy talab emas, balki sog‘lom oila, baxtli hayot va mustahkam jamiyatning garovidir. Tibbiy natijalar olingachgina unashtiruv va to‘y sanasini belgilash eng to‘g‘ri va mas’uliyatli qarordir.

M.ZAYNIGABDINOVA,
Andijon viloyati OITSga qarshi kurash markazi laboratoriya majmuasi mudiri.
X.RAXMONOV,
Andijon viloyati OITSga qarshi kurash markazi Shahrixon tumanlararo OIV diagnostika laboratoriyasi laboranti.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 14.11.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 14.11.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li